

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Tashmanov Shoxruz Baxriddin o'g'li

*O'R Milliy gvardiyasi Navoiy viloyati bo'yicha boshqarmasi Navbatchilik qismi Tezkor
navbatchi katta yordamchisi*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda[1].

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi va rahbarligi ostida so'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko'rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish choralari kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda jinoyat o'choqlari»ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish belgilandi[2].

Jinoyatchilikka qarshi kurash - jinoyat sodir etilishiga imkoniyat tug'diruvchi faktorlarni bartaraf qilish hamda jinoyatning oldini olish, ochish, jinoyatchilarni qidirish shu bilan birga tergov qilish, odil sudlovni amalga oshirish, jinoyat sodir etgan shaxsni tuzatish, jazoni o'tab chiqqanidan so'ng ularni ahloqini nazorat qilish, shu bilan birgalikda jinoyatni salbiy oqibatlarini tugatishga qaratilgan huquqiy, ruhiy, iqtisodiy-siyosiy hamda tashkiliy chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi[3].

Huquqbuzarlik — huquq va muomala layoqatiga ega sub'yekt tomonidan sodir etiladigan, huquq normalari talablariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish. O'z xususiyatiga ko'ra, huquqbuzarlik jinoyat, nojo'ya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda huquqbuzarlik qonunbuzarlik so'zi bilan bir xilda ishlatiladi. Fuqaroviy huquqbuzarlik (shaxsga, fuqaro yoki tashkilotning mulkiga ziyon yetkazish), ma'muriy huquqbuzarlik (mas,

mayda bezorilik, yo'l harakati qoidasini buzish), intizomiy huquqbuzarlik (nojo'ya harakat, mas, ishga kelmaslik, kech qolish) farqlanadi. Huquqbuzarlikning eng xavfli ko'rinishi jinoyatdir. Huquqbuzarlik uchun qonunda tegishlicha fuqaroviy, ma'muriy, intizomiy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Huquqbuzarlik-sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli, g'ayriijtimoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) huquqbuzarlikning jinoyat turi ozining ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi hamda qolgan huquqbuzarliklarga nisbatan huquqiy oqibati yomonroqdir. xususan, jinoyat uchun qolganlariga nisbatan ogirriq jazolar qollanilishi aytib otiladi. Huquqbuzarliklarga nisbatan jazo choralari quyidagicha qollaniladi

- 1)Jinoiy javobgarli jk43-modda
- 2)Mamuriy mjtk23-modda
- 3)Intizomiy mk181-modda
- 4)fuqaroviy shaxsning toliq moddiy va manaviy jihatdan javob berishidir

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash sohasidagi o'zaro hamkorligining huquqiy va tashkiliy-taktik asoslarini takomillashtirish jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga qarshi qaratilgan g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarni aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish kabi faoliyatlarini samarali tashkil qilish uchun imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустакиллиги - биз учун куч-қудрат ва илхом манбаи, тараккиёт ва фаровонлик асоси // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустакиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи
2. Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктларининг жамоат тартиби ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш. Юрид. фан. номзоди. Дис.-Т., 2008. - Б. 114.
3. Ўзбекистон Республикасининг ички ишлар органлари тугрисидаги қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, - 2017. - № 37. - 978-м.
4. Asadov, S. F. O. G. L. (2021). FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA DAVLAT ISHTIROKI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 7(11), 789-799.
5. Koryogdiyev, B. U. O. (2021). BITIMNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH VA UNING OQIBATLARINI QOLLASH FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH VOSITASI SIFATIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 7(11), 211-225.
6. Ўзбекистон Республикасининг миллий гвардияси тугрисидаги қонуни // Ўнун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон.